

## MAKTAB DARSLIKLARIDA HADIS MAZMUN G`OYASI SINGDIRILGAN MATNLAR (3-4-sinflar misolida)

Murtazoyeva Zarnigor

Buxoro davlat universitetining

Pedagogika instituti 2-bosqich magistri

**Annotatsiya:** boshlang'ich sinf darsliklari ayniqsa, ona tili va o'qish kitobiga razm soladigan bo'lsak, asosan, vatanga muhabbat, ilm egallash, ota-onaga hurmat, tabiatni asrash kabi bir qancha mavzular borki, bu mavzular bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini ushbu maqolada ko'rishimiz mumkin.

**Ключевые слова:** литература, наука, текст, хадис, уважение к родителям, ценность учителя, любовь к родине, эстетическое воспитание.

**Аннотация:** учебники начальных классов, особенно родной язык и книги для чтения, в основном содержат ряд тем, таких как любовь к Родине, получение знаний, уважение к родителям, сохранение природы, что мы можем видеть в статье.

**Key words:** literature, science, text, hadith, respect for parents, teacher's value, love for the motherland, aesthetic education.

**Annotation:** primary school textbooks, especially native language and reading books, mainly contain a number of topics such as love for the motherland, gaining knowledge, respect for parents, conservation of nature, which we can see in the article.

**Tayanch so'zlar:** adabiyot, ilm, matn, hadis, ota-onaga hurmat, ustoz qadri, vatanga muhabbat, estetik tarbiya.

Bolalar adabiyoti deganda bolalar shoir va yozuvchilari tomonidan ularga mo'ljallab yozilgan maxsus asarlar tushuniladi. Bunday asarlar bolalar ma'naviyatini boyitadigan, ularga ma'naviy-estetik zavq berishi kerak. Bolalar adabiyotida aks ettirilgan voqeal-hodisalar hayotiy, haqqoniy tasvirlanishi, bolalarning ruhiy olamiga mos tushunarli va qiziqarli bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, bolalarga atalgan badiiy asarlar ularning fe'l-atvorlarini to'la namoyon qilishi bilan bir qatorda pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy aloqada bo'lishi lozim. Chindan ham bu jiddiy vazifalarni bajarishda, aniqrog'i, mustaqil yurtning har tomonlama yetuk, barkamol avlodini tarbiyalashda asrlar osha xalq an'analari, milliy qadriyatlar, folklor namunalari, milliy adabiyotimiz va jahon xalqlari adabiyoti an'analari zaminida vogelikka aylangan o'zbek bolalar adabiyotining beqiyos o'rni bor. O'zbek bolalar adabiyotining badiiy

jihatdan yuksak namunalariga keng e'tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining shiddat bilan rivojlanayotgan qiziqishlari, ruhiy, ma'naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali talabalarda estetik, axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bolalar uchun yozilgan darsliklarda ham ularning dunyoqarashidan kelib chiqqan holda mavzular tanlanishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsliklaridagi mavzulari, asosan, tarbiyaga bevosita yo'g'rilgan bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi va 4-sinflar uchun mo'ljallangan o'qish kitobi darsliklariga razm soladigan bo'lsak, asosan, vatanga muhabbat, ilm egallah, ota-onaga hurmat, tabiatni asrash kabi bir qancha mvzular borki, bu mavzular bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaga dunyoviy ilmlarni o'rgatish bilan bir qatorda, diniy ilmlar berib borish maqsadga muvofiqliр. Albatta, buni darsliklarda berilgan mavzular orqali yoritib berish ham o'qituvchining mahoratiga bog'liq hisoblanadi.. Bola yoshligidan boshlab o'zining dunyoqarashiga mos bo'lgan, tushunilishi yengillashtirilgan hadislarni va shunga o'xshash diniy matnlar, hikoyalar bilan tanishib borishi uning ruhiyatiga va tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Quyida hadislar bilan bog'lab, diniy mafkurani ham rivojlantirish mumkin bo'lgan she'rlar, matnlarni tahlil qilishga harakat qildik. Zero, hadis bola diniy mafkurasini o'stirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

4-sinf O'qish kitobu darsligida O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Iqboli buyuksan" nomli she'ri keltirilgan.

Avvalo rahmatdir Onaga,

So'ng esa albatta Otaga.

She'rning birinchi satrlaridanoq biz shoirning hadisga ishora qiluvchi fiklarini ko'ramiz. Hadisi sharifda "Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil", deyilgan. Onalarni e'zozlash, ularga ehtirom ko'rsatish payg'ambarimiz tomonlaridan juda ko'p bora ta'kidlab o'tilgan. Hatto bir hadisda "Ota-onang bir vaqtning o'zida chaqirsalar, avval onangga javob ber" deyilgan. Onalar Hadis-u Sharifda ham Qur'oni Karimda ham e'zozlanilgan. Jannat onalar oyog'i ostidadir deyilishi ham bejiz emas. Jumladan, shoir ham ushbu she'rida ana shu hadislardan iqtibos olgan bo'lsa ajabmas.

Keyingi jumlalarda ham shoirning fikrlarini bevosita hadislar bilan bog'lasak xato bo'lmaydi: Bizlarga eslatmish hayotni,

Unutmang hech qachon ustozni.

Qur'oni Karimda va Hadisi Sharifda ilm qanchalik e'tirof etilsa, ustoz ham shunchalik qadrlanadi, e'zozlanadi. Ustozni otaday ko'rish, unga nisbatan hurmatda bo'lish takidlanadi. Zero, diniy ilmlarni chuqr egallaga, har ir asarida Qur'on va Hadisning nafasi sezilib turadigan buyuk so'z sohibi Alisher Navoiy ham:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado, oning haqin ming ganj ila.

deya ustozning mashaqqatlari mehnatini alohida e'tirof etadi.

Ushbu she'rlarni bolalarga tahlil qilib berishda hadislardan ham foydalanilsa, bolaning diniy tarbiyasi oshib boradi. Atrofdagilarga bo'lgan munosabat o'zgara boshlaydi. Alloohni taniy boshlaydi. Yaxshilik va yomonlikni ajratishni o'rganadi. Ota-onaga, ustozga, vatanga bo'lgan mehr-muhabbat shunchaki emas, balki diniy tomondan ham mustahkamlanadi.

O'qish kitobida Miraziz A'zamning "Mardlik va aql yorug'ligi" deb nomlanadigan yana bir tarbiyaviy ahaiyatga ega she'r berilganki, ushbu she'rni ham bevosita hadislar bilan ulab, o'quvchiga chiroyli yetkazish mumkin.

Bir gapim bor, ukajon,

Diqqat bilan qulqoq sol.

Aytsam, o'gitga o'xshar,

Aytmasam, lekin uvol.

Bir o'g'lonning shu gapi

Ko'nglimga og'ir tegdi:

«O'g'il bolaga ilm

Juda zarurmi? – deydi.

Boshlang'ich sinf bolalarining aksariyati hali o'yinqaroq, sho'x bo'lishadi. Ularni ilm olishga chorlash ba'zan qiyinlik tug'diradi. Yuqoridaq she'rda shoir ta'kidlaganidek, bolalar orasida «O'g'il bolaga ilm, Juda zarurmi?» deb savol beradigan o'quvchilar topilib qoladi. Albatta, bolaga majburlab ilmi singdirib bo'lmaydi, holbuki hadisda ham "Ilm majburlab o'rgatilmaydi", deya ta'kidlangan. Xo'sh, unda qanday yo'l tutmoqlik maqsadga muvofiq bo'ladi? Bola psixologiyasida shunday xususiyat borki, ular qilma deyilgan narsani qilishga, qil deyilganlarni esa qilmaslikka harakat qilishadi. Bu, albatta, ularning ruhiyatiga va xarakteriga bog'liq bo'lgan hodisadir. Lekin har qanday bolaga muloyimlik bilan tushuntirilib, tushuntirganda ham odatiy usulkan emas, boshqa usullardan foydalanilsa ular shu ishni qaytib qilmaslikka, yoki qilinishi kerak bo'lgan ishlarni gap-so'zsiz qilishga harakat qilishadi. Hadisda : "Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir" deyilgan.

**Izoh:** Payg 'ambar S. A. V. ummatlariga uzoq o'lkada bo'lsolarining ham ilm o'rganishga intilinglar, chunki ilm olishga astoydil kirishish har bir mo'min uchun farz hisoblanadi, deganlar.

O'g'ilga mardlik kerak,

Ilm ham kerak tayin.

Ilmsiz mardning esa

Holiga yig'lar maymun.

Ilm o'rganish har bir mo'min uchun farzdir. Ilm tolibi uchun hamma narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham gunohini so'rab istig'for aytadi.

*Izoh: Har bir mo 'min uchun ilm o 'rganish farz. Ilm tolibi uchun barcha narsa, shuningdek, dengizdagi baliqlar ham gunohini so 'rab kechirim so'rashadi.*

Bir soatgina ilm o 'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro'zadan afzaldir.

*Izoh: Mo 'min uchun bir soat ilm o 'rganish bir kechalik toat- ibodatdan afzal, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan ramazon oyidan tashqari ixtiyoriy ro 'zadan yaxshidir.*

Bolalarga yoshligidan boshlab Qur'oni Karim qissalaridan, payg'ambarlarning hayoti haqida naql qiluvchi turli rivoyatlardan, xalq ertaklari va dostonlaridan, topishmoqlar, maqol va matallardan o'qib berish, so'zlash yoki ularning o'zlariga o'qitish ham kerak. Bu bilan bolalarning zehni o'sadi, fikri kengayadi, dunyoqarashi boyiydi, xotirasi kuchayadi. Eng asosiysi, bola eshitganlaridan ibratlanib, yaxshi odamlarga ergashishga intiladi, ularning xulq-u odobidan bahramand bo'ladi.

### Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Амонов У. С. НАУЧНЫЙ ПОДХОД А. ФИТРАТА К ПОСЛОВИЦАМ //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С.
- 2.Amonov U. S. O 'QISH DARSLARIDA MAQOL JANRIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD) MQ Salohiddinova, BuxDU boshlang 'ich ta'lim 2-bosqich talabasi //Научно-практическая конференция. – 2022.
- 3.S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov 4- sinf o'qish darsligi. TOSHKENT  
«YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS» 2017
- 4.Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – С. 403-407.
- 5.Amonov U. S. FOLKLORE IN THE WORKS OF ABDURAUF FITRAT //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12.
- 6.Ulug'murod Sultonovich Amonov S. R. et al. BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLIGINING ELBEK TALQINIDAGI KO 'RINISHI: Ulug'murod Sultonovich Amonov BDU o'qituvchisi Sh. R. Safarova, BDU magistranti, 14-maktab o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.